

URUG' MEVALI BOG'LAR SO'RUVCHI ZARARKUNANDALARINING TURLARI, TARQALISH AREALI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turaqulov Abdusaid Abdusalomovich

Magistr, O'simliklarni himoya qilish kafedrası magistri

магистр кафедры защиты растений, г. Ташкент

Master, Department of Plant Protection, Tashkent

<https://orcid.org/0009-0007-3112-9893>

Norbo'tayev Abror Alisher o'g'li asistent

O'simliklarni himoya qilish kafedrası assistenti

Ассистент кафедры защиты растений, г. Ташкент

Assistant, Department of Plant Protection, Tashkent

<https://orcid.org/0009-0009-6026-8475>

Nasirov Baxtiyor Saloxiddinovich professor

O'simliklarni himoya qilish kafedrası professori

профессор кафедры защиты растений, г. Ташкент

Professor, Department of Plant Protection, Tashkent

<https://orcid.org/0009-0004-9322-9580>

Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent-100140, Universitet ko'chasi, 2,

O'zbekiston Email: norbutayevabror4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019323>

Annotatsiya: Urug' mevali bog'lar so'ruvchi zararkunandalarining turlari, tarqalishi va bioekologiyasi haqida.

Аннотация: О видах, распространении и биоэкологии сосущих вредителей семенных плантаций.

Annotation: About the types, distribution, and bioecology of sucking pests of seed orchards.

Urug' mevali bog'lar so'ruvchi zararkunandalarining qanotli va qanotsiz xillari mavjud. Qanotli shiraning qorin qismining ustida oq pari bo'ladi. Gavdasi silindr shaklida bo'lib, uzunligi 2.2 mm atrofida bo'ladi. Tanasining qolgan qismlari boshi, ko'kragi va oyoqlari qora, qorni esa to'q jigarrangda uchratiladi.


Qanotli olma qizil qon shirasi (*Eriosoma lanigerium*) ning rangi qanotsiz shiranikeydan farq qiladi. Mazkur shiraning rangi biz tadqiqot olib borgan Toshloq tumani Tegirmonboshi qishlog'ida hamda Bog'dod tumani Yangi ariq qishloqlari hududida bir xil to'q qizil rangda uchratildi. Ushbu qanotsiz shirining usti to'liq mumsimon parli oq g'ubor bilan qoplanganligini ko'rish mumkin. Bu shirani boshqacha parli shira deb ham ataladi.

Ushbu shiraning biologiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak o'ziga xoslikni ko'rish mumkin, yani mazkur tur shiralar qishlash davrida turli yoshdagi kichkina hamda voyaga etgan hashoratlik stadiyasiga bo'ladi. Tadqiqot olib borilgan har ikkala hududda olma qizil qon shirasining qishki mavsumda olma daraxtlarini ildizidan, po'stlog'i orasidan hamda yo'g'nroq shoxlarining yoriqlaridan topildi.

V.V.Yaxontovning ma'lumot berishicha ushbu shira o'z vatani Shimoliy Amerikada qayrag'ochzorlarda tuxumlik stadiyasini kishlaydi (V.V.Yaxontov. 1962).

Olma qizil qon shirasining tuxumdan chiqishi yoki lichinka va umuman qishlab chiqqanlarining yoki qishki uyqudan uyg'onishlari uchun +5 S temperatura talab etiladi. Toshkent viloyati sharoitida qizil qon shirasi to'liq hayotiy sikliga ega va uning mavsumiy

rivojlanishi mart oyi oxiridan boshlab yanvarga qadar davom etadi va bu holat mahalliy shart-sharoitlar va birinchi navbatda ozuqa o'simligining vegetatsiya muddatlari bilan bog'liq bo'ladi.



1.1-rasm. 1-qizil qon shirasi: 2- qanotli va qanotsiz etuk zotlari, 2,3 – olma novdasini zararlashi va uning natijalari, 4 – olma daraxt ildizini zararlanishi


Mazkur tur Toshkent viloyati sharoitida olma daraxtining barcha yaruslari bo'ylab bir tekis, katta va zich to'dalarni hosil qilib yashaydi. Uning birinchi bo'g'ini asoschilardan iborat bo'ladi. Ikkinchi bo'g'indan boshlab to'dalar qanotsiz va qanotli tirik tug'uvchi shiralar hamda nimfalardan tashkil topadi. Nimfalar va qanotli shiralarning to'dalardagi ulushi 2-4-bo'g'inda nisbatan oz sonda bo'ladi. 8- va 9-bo'g'in to'dalari tarkibida qanotli shiralar soni yuqori darajada bo'lib, ular populyasiya zichligining 40% ga qadar qismini tashkil etishi mumkin.

Toshkent viloyati sharoitida qizil qon shirasi 15-17 marta bo'g'in beradi. Masalan, 2017 yilda uni 17 bo'g'in, 2018, 2019 yillar davomida 16 marotabagacha bo'g'in berishi aniqlandi. Amfigon bo'g'in shiralari oktyabrning oxirlari, noyabr oyining boshlarida rivojlanadi. Bu muddat qizil qon shirasining hayotiy siklidagi 15 va 16-bo'g'inlarga to'g'ri keladi. Shu muddat davomida qishlovchi tuxumlar osonlik bilan topiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Toshkent viloyati sharoitida qizil qon shirasining hayotiy sikli boshqa hududlardagiga nisbatan uzoq davom etadi.

Olma shirasi (*Aphis pomi* Deg.). Olma, nok, behi va boshqa daraxtlarga tushadi. Keng tarqalgan tur bo'lib olma o'sadigan deyarli barcha hududlarda uchraydi. Shira bosgan barg va novdalar o'sishdan to'xtab buraladi, hatto quriydi.

Olma shirasi yashil, ba'zan sariq-yashil bo'ladi. Qanotli zotlarning o'rta va orqa ko'kragi hamda oldingi ko'kraging yarmi qora rangli, voyaga etgan shiraning uzunligi 2 mm atrofida, qorin uchi qoramtir, naychalari qora. Olma shirasining shakli noksimon bo'ladi.

Shiralar daraxtlarning yosh shoxlarida tuxum shaklida qishlab chiqadi. Bahorda kurtaklar yoziladigan vaqtgacha tuxumlardan lichinkalar chiqadi, ular avval bo'rtgan kurtaklardagi shirani, keyinchalik barg va gullardagi shirani so'radi (3.2-rasm).



1.2-rasm. 1-Oлма shirasi: 2- qanotli va qanotsiz etuk zotlari, 3 - olma barglarining zararlarini.

Buning natijasida barglar buralib qoladi. Shiralarning etuk zoti olma qiyg'os gullagan vaqtgacha paydo bo'ladi. Olma shirasi mavsumda 15 ta bo'g'in beradi. Har bir urg'ochi zot bahorda 50 tagacha, yozda esa 20-30 tagacha lichinkani tirik tug'adi. Yozning jazirama kunlari shiralarning umumiy rivoji susayadi, bunga tabiiy kushandalari (koxsinellidlar, afidiidlar, oltinko'z va b.) ko'payganligi ham sababchi bo'ladi. Va nihoyat, sentyabrdan boshlab olmada (ayniqsa yosh barglarida) olma shirasi yana ko'paya boshlaydi. Oxirgi bo'g'inlarida erkak va urg'ochi zotlari paydo bo'lib, qo'yilgan tuxumlari qishlab qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Murodov S.A. Umumiy entomologiya kursi: Oliy va maxsus o'rta ta'lim bosh boshqarmasi qishloq xo'jalik institutlari o'simliklarni himoya qilish fak.stud. uchun darslik Mehnat, 1986. 134-136 b.; 169-177 b;
2. Boltaev B.S. «Zaxita rasteniy» uchebnik – T.: Izd. «Navro'z» 2020 g. 264-str.
3. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. "Fan" nashriyoti, 2019 y. 310 –315 b.
4. Kimsanboyev X.X., Boltayev B.S., Sulaymonov B.A. -"Bog' zararkunandalariga qarshi uyg'unlashgan kurash choralari". Toshkent, 1998.
5. V.V.Yaxontov «O'rta Osiyo Qishloq xo'jaligi ekinlari va mahsulotlarini zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari.» Toshkent, 1962-yil. 227-.228; 278-279; 327 b.
6. Zurabova E.R., Lepidotsid // J.Zaxita rasteniy. - M.. -1987. -№12. -S.21.
7. Insektitsid, akaratsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent. KOHI-NUR. 2004,-104 b.
8. Insektitsidlar, akaratsidlar, biologik aktiv moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. -Toshkent.- Uzinformagroprom. -1994.- B.4-18.
9. Kimsanboev X.X., O'lmasboeva R.SH., Xalilova Q.X. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi. O'qituvchi nashryoti. Toshkent-2003. 222-b.
10. Korchagin V.N. «Vrediteli plodovix derevev» J.: «Zaxita rasteniy» № 3 1988 s. 48.
11. Maxotkin A.G., Maxotkina L.YA. Feromonniy monitoring YAbllonnoy plodojarki. //Zaxita

i karantin rasteniylar. - 2005. - №5. - S.36 - 38.

12. Monastirskiy O.A. Biologizatsiya zaqiti rasteniylar: otstavanie Rossii stanovitsya vse bolee
ochevidnim //J.Zaqita i karantin rasteniylar. - M. -M-2007. -№3.-S.20-21.